

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY AXBOROTNOMA | 2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY





105	Mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasining umumnazariy muammolari Ahmedova V.....	1279
106	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida fizikaning "elementar zarralar fizikasi" bo'limini o'zlashtirish samaradorligini oshirishda mustaqil ta'limning roli Nasriddinov K.R.,Madaliyev A.M.....	1287
107	O'smir yoshdagi bolalarning ayrim jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash. Mirzabekova F.....	1292
108	Umumta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integratsiyalashda o'quvchilar motivasiyasini rivojlantirish Avliyoqulov A.A.....	1297
109	Methods of teaching the russian language Parpiyeva M.M.,Nishonov U.I.....	1302
110	The role of pedagogy in teaching engineering sciences Parpiyeva M.M.,Atadjanova B.T.....	1306
111	Yoshlarni sog'lom fikrga ega shaxs sifatida tarbiyalashda markaziy osiyo valeologiyasining o'rni Yo'ldoshev S.Z.....	1310
112	Применение кластера в грамматике русского языка как эффективный метод раскрытия тем Касимова М.Б.....	1316
113	Hozir kunda chet tillarini (ingliz tili) o'qitishda jahon tajribasi va zamonaviy metodologiyasining ahamiyati Saydaliyeva D.Z.....	1320
114	Maktab sharoitlarida yosh yengil atletikachilarni tayyorgarlik jaroyoni Usmanov B.X.....	1325
115	Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy kreativ metodlar Tulaboyeva G.T.....	1333
116	Features of using of educational internet resources in teaching of foreign languages Tokhtasinova Z.Z.....	1338
117	Развитие литературно-творческих способностей учащихся начальных классов на уроках читательской грамотности Хусниддинов Х.....	1341
118	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va yozish malakalarini badiiy asarlar yordamida rivojlantirish Dadamirzayeva M.Sh.....	1347
119	Ichki sekretiya bezlari fiziologiyasi Norqulov Sh.T.....	1350
120	Aqli zaif bolalar bilan ishlashda fitnes mashg'ulotlaridan foydalanish samaradorligi Valiyeva N.Y.....	1353
121	Yuqori malakali kurashchilar qo'l panja kuchi ko'rsatkichlarining ilmiy-uslubiy tahlili Azizov N.N.....	1360

MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK DRAMATURGIYASINING UMUMNAZARIY MUAMMOLARI

Vaziraxon Ahmedova

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri (PhD)

I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti Olmaliq filiali

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasining umumnazariy muammolari o'rganilgan. O'zbek dramaturgiyasining mavzu ko'lami, dramalarda nazariy muammolarning yoritilishi jahon dramaturgiyasi, xususan, frantsuz, nemis, ispan va italyan dramaturgiyasidagi nazariy jihatlari qiyosiy tahlilga tortilgan.

Tayanch so'zlar: drama, personaj, perepetiya, janrlar genezisi, komizm, tragizm, total teatr, epik teatr, pritcha, remarka.

1279

www.journal.namdu.uz

ISSN: 2181-0427



ОБЩЕТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Вазирахон Ахмедова

Заведующая кафедрой Узбекского языка
и литературы (PhD) Алмалыкского филиала
Ташкентского государственного технического
университета им. И.Каримова

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются общетеоретические проблемы узбекской драматургии периода независимости. Сравнительному анализу подвергаются предметная сфера узбекской драматургии, теоретические проблемы драматургии, теоретические аспекты мировой драматургии, в частности, французской, немецкой, испанской и итальянской драматургии.

Ключевые слова: драма, персонаж, перепетия, генезис жанров, комизм, трагизм, тотальный театр, энический театр, притча, ремарка.

GENERAL THEORETICAL PROBLEMS OF UZBEK DRAMA OF THE PERIOD OF INDEPENDENCE

Vazirakhon Akhmedova (PhD)

Head of the Department of
Uzbek Language and Literature
Tashkent State Technical University
named after I. Karimov Almalyk branch

Annotation. This scientific article examines the general theoretical problems of Uzbek drama of the period of independence. The subject area of Uzbek dramaturgy, theoretical problems of dramaturgy, theoretical aspects of world dramaturgy, in particular, French, German, Spanish and Italian dramaturgy, are subjected to comparative analysis.

Keywords: drama, character, vicissitudes, genesis of genres, comedy, tragedy, total theater, epic theater, parable, remark.

Kirish

Inson ma'naviy olamida isyon, tuyg'ular po'rtanasi bejiz tug'ilmaydi. Qachonki, o'zi uchun ardoqli bo'lgan muqaddas qadriyatlar oyoq osti qilinsa yoxud sabr-toqat, bardoshga yetarlik kuch qolmaganda, odam barchasiga qarshi isyon qiladi. Uyg'ongan milliy ruh, toptalgan g'urur kurashchanlik maylini yuzaga keltirib, amaliy harakatlarga chorlaydi. Dramatik asarlarda bunday vaziyat-holat tasviri kuchli drammatizm orqali ifodalanadi. Shu bois, qahramon va taqdiri azal konflikt asosiga qurilgan dramalar syujetida qahramon taqdiridagi keskin burilish – xatti-harakatning ko'zlanganiga zid holatga evrilishi (peripetiya) yuzaga chiqadi. Kutilmaganda qayg'udan shodlikka va aksincha shodlikdan qayg'uga o'tish sodir bo'lib, syujet voqealari rivoji keskin o'zgaradi. Drama matni o'qishli va teatr tomoshasi qiziqarli bo'lishi syujet qurilishidagi ana shu o'ziga xoslikka bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

Badiiy tafakkurning realizm bosqichiga o'tgan sari, qahramon taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik omillarni ko'rsatishga e'tibor ortdi. Tasodiflarni hayotiy, real h



monand tarzda tasvirlashga o'tildi. Shunga qaramasdan, inson hayoti hamisha tasodiflarga eshdir. Insonning taqdiri azal hukmiga bo'lgan ishonchi mustahkam ekan, dramatik asarda peripetiyaning syujet strukturasidagi roli va salmog'ini butkul inkor etish mumkin emas. Zotan, drama epik asardan farqli o'laroq, hayotiy vaziyat-holat (situatsiya)ni ko'rsatishga emas, balki konflikt va harakat negiziga quriladi.

Sho'ro davrida o'zbek nazariyotchi olimlari badiiy adabiyotga ijtimoiy ongning alohida shakli deb qarashdi: *"...ijtimoiy borliqning in'ikosi, tarixiy taraqqiyotdagi muayyan bosqichning mahsuli... shu taraqqiyotga muayyan ta'sir o'tkazadigan vosita"*¹⁷³ deb bilishdi. Shubhasiz, bu davrning sinfiylik haqidagi qarashlari sobiq ijtimoiy tuzum inqirozi bilan kun tartibidan tushib qoldi. Biroq drama (harakat orqali ko'rsatiladigan tomosha) obrazli tafakkur mevasi, dramatik asar – xarakterlar ruhiyati ifodachisi va uning manbai jonli hayot ekani, badiiy so'z rivoji va poetik hukm chiqarish o'z zamonasi ehtiyojlarini anglagan iste'dod darajasiga bog'liqligi haqidagi nazariy qarashlar hanuz o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Shuningdek, fan-taxnika, kino va sahna san'ati behad taraqqiy qilgan, kinoqissalar matni ommaviy tirajda chop etilayotgan, didlar noziklashgan, kitobxon shaxsi individduallashgan davrda: *"...dramatik asarning potentsial imkoniyatlari to'la ro'yobga chiqishi uchun u sahna (yoki ekran)da o'ynalishi zarur. Ammo bu hol uning o'qilmasligini yoki o'qishga yaramasligini ko'rsatmaydi... yuqori madaniyatli tomoshabingina teatr sahnasida yoki ekranda ko'rgan asarining adabiy asosi bilan yana tanishuv katta estetik va ma'rifiy ahamiyatga ega ekanini biladi,"*¹⁷⁴ -degan nazariy qarash ham birqadar faollashmoqda.

Ikki jildlik "Adabiyot nazariyasi"ning "Drama" bo'limi muallifi akademik I.Sultonov: asarning dialog shaklida yozilishi, parda (akt) va ko'rinishlarga bo'linishi; dramatik vaziyat-holat (situatsiya)ni aks ettirishi kabi belgi-sifatlar epik, lirik va liro-epik turlarga ham xos ekanini dalillaydi. Asar yozilgan paytdayoq dramaturg, teatr va tomoshabin uchligi ta'minlanishi ko'zda tutilishi, sahnaga qo'yilganida jamoa (publika)ni zavqlantirishi va larzaga solishi, bir tomoshabin o'z sezgilarini o'zgasiga yuqtirishi (hislar diffuziyasi)ni yuzaga chiqarish orqali umumiy sezim yaratib, ommani muallif hamfikri, kechinmadoshiga aylantirishini dramatik asarlarning yetakchi alomatlari hisoblaydi.

Asosiy qism. Drama eposga xos real hayotning keng ko'lamli, ob'ektiv va dramatik manzarasini berish (epizm va dramatizm); lirikaga xos tasvir etilayotgan voqea-hodisaga muallif hissiy munosabati ifodalanishi – lirizm. V.G.Belinskiy ta'biri bilan aytganda: drama "sub'ektiv asos" – lirik poeziyaga xos monolog va dramatik situatsiyalar orqali badiiylilikni ta'minlash va o'z poetik quvvatini oshirishga qodir sinkretik (yun. *synkretismos* – birlashtirish, qo'shish), ya'ni birinchidan nainki dramaga, balki lirika va eposga xos belgi-xususiyatlarni ham o'ziga singdira oluvchi, ikkinchidan adabiy matn sahnada ijro qilishga mo'ljallangani uchun ijro jarayonida dramaturg, rejissyor, aktyor, musiqachi, grimchi, rassom, chiroq ustasi va boshqalar mehnatini bir-biriga qo'shib, o'zaro birlashtiruvchi janrdir. Muhimi: *"Dramatik asarda nimaiki ifoda etilmoqchi bo'lsa, bizning oldimizda harakat etib turgan, ya'ni o'z oldidagi va o'z ichidagi to'siqlar bilan kurashib, ularni yengib yoki ulardan yengilib, iztirob chekayotgan, quvonayotgan, tantana qilayotgan va hokazo inson shaxsi orqaligina ifoda etiladi"*¹⁷⁵

¹⁷³ Адабиёт назарияси. Икки томлик. Биринчи том. – Тошкент, Фан, 1978. – Б. 13-22.

¹⁷⁴ Адабиёт назарияси. Икки томлик. Иккинчи том. – Тошкент, Фан, 1979. – Б. 276-277.

¹⁷⁵ Адабиёт назарияси. Икки томлик. Иккинчи том. – Тошкент, Фан, 1979. – Б. 294.



I.Sulton fikricha, badiiylikning lirizm, epizm va o'tkir drammatizm unsurlari o'zaro birlashuvi dramatik asarning qudratini behad orttiradi. Dramatik janrlarning o'ziga xosligi quyidagi to'rt unsur orqali namoyon bo'lib, kitobxon (tomoshabin)ni voqealarning jonli guvohiga aylantiradi:

- dramatik turga mansub asar o'zining adabiyotga mansubligini saqlagan holda, sahna va ekranda ikkinchi marta tug'ilishi;

- insonning hayotdan olgan o'z taassurot va saboqlarini boshqalarga ko'rsatmali usulda berish, ya'ni hayotiy tajribani "ko'rsatish orqali" ifoda etishi (raqs, pantamimo, qo'g'irchoq o'yini va h.z);

- dramatik asarda so'z, lirika va eposdan farqli o'laroq, aytilgan bo'lishdan tashqari, tomoshabinga to'la-to'kis yetishi;

- dramatik asarning bosh qahramoni voqea ham emas, muallif ham emas, balki shaxs ekanligi.¹⁷⁶

Adabiyotshunos olim U.Jo'raqulov janr genezisi va madaniy-tarixiy omillarini adabiy-tarixiy jarayonning eng qadimgi bosqichlari – yunon mifologiyasi (*ma'bud Dionis obrazi nazarda tutilmoqda*.¹⁷⁷ V.A.) bilan uzviy aloqadorlikda kuzatadi. Mazkur janr ilk paydo bo'lishi va shakllanish bosqichlarida uning shakl va mazmunida mif sinkretizmi yetakchilik qilishi (*mifologik talqinlar: e'tiqod, dunyoqarash, diniy marosimlar va ramz-kodlar*)ga e'tibor qaratadi. Jadid ijodkorlar asos solgan va hozirda davom etayotgan professional yozma dramaning an'anaga asoslanuvchi quyidagi ta'sir manbalarini ko'rsatadi:

Birinchi manbani o'zbek xalq madaniy-ma'rifiy, adabiy an'analari – marosim folkloriga xos dramatik xususiyatlar: harakat, mimika, dialog, kompozitsiya, guruhli ijro bilan izohlaydi. Jumladan, drama janrlari tarkibini uning kompozitsiyasida: a) muloqotning dialog shakli; b) dialogik va monologik muloqot hamda dekoratsiya unsurlari yetakchilik qilishiga ko'ra ajratadi;

ikkinchi manbani doston, qo'shiq, latifa, ertak, aytishuv singari folklor adabiy janrlariga xos quyidagi belgi-alomatlar bilan bog'laydi: a) so'zlashuvning dialogik shaklda qurilishi; b) dramatik konfliktga asoslanishi; v) ijro usuli; g) qahramonlararo muloqotning dramatik muloqotga yaqinligi; d) dostonda dialog asosiga qurilgan dramatik vaziyatlar dramatik pafosni tashkil etishi;

uchinchi manbani o'zbek mumtoz adabiyotidagi doston va g'azallarda vaziyat-holatlarning dramatik muloqotga asoslanishi, ya'ni dramatik konfliktning uch shakli: (qahramon – qahramon, muhit – qahramon, xarakter – xarakter) ga uyg'un holda namoyon bo'lishi, asar konflikti tabiatini obrazlararo dramatik kontakt belgilashi bilan tushuntiradi;

to'rtinchi manbani Abdurauf Fitratning shaklan dramatik asarlarni eslatuvchi dars-muloqotga qurilgan "O'quv" darsligi va Platon dialoglari ta'siri yorqin sezilib turuvchi – tomonlarning dialog-bahsiga asoslangan, teran dramatik mazmun, keng falsafiy mushohada, badiiylashgan uslub, ijtimoiy pafos singari drama janriga xos qator xususiyatlarni namoyon etgan "Munozara" asari hamda ko'p asrlik an'analarga ega voizlik san'atida ko'radi.¹⁷⁸

¹⁷⁶ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, O'qituvchi, 2005. – B. 190.

¹⁷⁷ Ahmedova V.A. The phenomenon of inter genres diffusion in the uzbek drama of independence period // *Academica An International Multidisciplinary Research Journal*. India. 2020. № 5. - P. 384-391

¹⁷⁸ Журақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМНУ, 2015. – Б. 17-28.



Adabiyotshunos Sh.Rizaev “Mustaqillik davri dramaturgiyasi” nomli maqolasida, san’atshunos M.Fozilova esa “Usmon Azimning dramaturgik mahorati” nomli monografiyasida mustaqillik davri dramaturgiyasini mavzu qamroviga ko’ra tarixiy va zamonaviy mavzudagi asarlar tarzida ikkiga bo’lib o’rganishgan¹⁷⁹. Bu tasnifga tayanish tarixiy va zamonaviy mavzudagi dramalarning ichki tarmoqlanishini ham aniqlash imkonini beradi. Jumladan, tarixiy mavzudagi dramalarni: a) tarixiy qahramonlik; b) tarixiy-falsafiy; v) ma’rifiy-tarixiy; g) tarixiy-biografik, tarzida tasniflash mumkin.

Mustaqillik davri o’zbek dramaturgiyasida yangi uslubiy yo’sinlar va janriy shakllar ana shu mustahkam poydevorga tayangan holda paydo bo’ldi. Bizningcha, mustaqillik davri o’zbek dramaturgiyasi¹⁸⁰ rivoji uchun imkon bergan quyidagi omillarni alohida qayd qilish lozim:

1. Ijtimoiy-siyosiy tuzumning o’zgarishi erkin ijod qilish imkonini berdi. Bu hol badiiy ijod uchun qo’yilgan majburiy metodologik to’siqlarni bartaraf qildi va milliy dramaturgiyamiz o’zining yangi tarixini yaratishga kirishdi.

2. O’lis va yaqin milliy tarix, diniy e’tiqodimiz, ilohiyot pirlari, shayx-valiylar, ulug’ allomalar, asossiz qoralangan, qatag’on qilingan shaxslar qismati, azaliy urf-odat va an’analarimiz hamda zamondosh ong-shuuri, ko’ngil iqlimida kechayotgan po’rtanalarni dramaga ko’chirish, sahna va kinoga olib chiqish imkoni yuzaga keldi.

3. Dramaturgiya va teatrga yangi zamon ruhi kirib keldi. Erkin va ozod Vatanga muhabbat mavzusi yetakchi g’oyaga, millatni uyg’otish va shu g’oya atrofida jipslashtirish, kitobxon (tomoshabin)ni halollik, poklik, jasurlik, fidoyilikka undash, falsafiy fikrlashga o’rgatish, fikr odami orqali o’zbekning qiyofasini namoyon etish bosh maqsadga aylandi. Ko’plab dramatik asarlarda shaxs va davr muammolari qalamga olindi, sahnaga olib chiqildi.

Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, XX-XXI asrlar davomida Sharqiy Yevropa mamlakatlarida dramatik asarlarni sahnalashtirish¹⁸¹ jarayonida chuqur tarixiy ildizlariga ega madaniy an’analardan muayyan darajada chekinish, rejissyor rolining ortishi natijasida ilg’or texnologiya yutuqlaridan faol foydalanish harakati kuchaydi. Masalan:

Frantsuz teatr san’atida A.Arto, J.Vilar, R.Planshon, J.Kokto, A.Salavr asarlarida syurrealizm yetakchi yo’nalishga aylandi¹⁸². Muammoli va intellektual teatr rivoj topdi. Ijtimoiy, axloqiy, diniy va estetik muammolarni aks ettirishdan voz kechish va mifologik syujetlarni qayta idrok etish, yangicha zamonaviy motivlar bilan boyitish asosidagi dramalar yuzaga keldi. Teatr san’atining avangard yo’nalishlari shakl va uslublari, xususan, ramziy-majoziy obrazlar yaratish usullari ijodiy o’zlashtirildi.

Germaniyada V.Gazenklever, E.Toller, G.Kayzer, F.Unru dramalarida ekspressionizm estetikasi o’zlashtirilib, hajviy pafos va falsafiy mazmun chuqurlashdi. Muammoli, diniy, axloqiy yoki didaktik-allegorik qarashlar – xalq donoligini o’z ichiga olgan kichik hajmli hikoya

¹⁷⁹ Ризаев Ш. Мустақиллик даври драматургияси. / Сарчашма мавжлари. – Т.: “Mashhur-press”, 2016. – Б. 263-288; Фозилова М. Усмон Азимнинг драматургик маҳорати. –Т.: “Тафаккур қаноти”, 2016. – Б.6.

¹⁸⁰ Истиқлол ва миллий театр. Янги аср авлоди, – Т.: 2002; Турсунов Т. Саҳна ва замон. Янги аср авлоди, – Т.:2007; Исмолов Т. Тарих ва саҳна. –Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.

¹⁸¹ Лебедев О.Б. Картина мира, концепция личности, типология конфликта в литературе классицизма // <https://lit.wikireading.ru/45726>

¹⁸² <https://allrefrs.ru/3-9793.html> ; <https://www.disscat.com/content/interpretatsiya>



(pritcha)ga asoslangan pesalarda tamoshabin tuyg'ularidan ko'ra, uning ongiga ta'sir etish muhim sanala boshladi. "Total teatr", "epik teatr" tushunchalari paydo bo'ldi. "Epik teatr"ning asosiy vazifasi tasvirlash orqali tomoshabin hissiyotlariga ta'sir qilish emas, balki fikr-tuyg'uni uning ongiga yo'naltirish, voqelikni ratsional idrok etishga ko'maklashish sanala boshladi.

Anglashiladiki, taniqli nemis dramaturgi va rejissyori Bertold Brext, amerikalik dramaturglar Tenness Uilyams va Artur Millerlar ishlab chiqqan ushbu nazariyaning asosini sahna va tomoshabin o'rtasidagi muloqotni o'zgartirish masalasi tashkil qiladi. "Epik teatr"ning barcha tamoyillari (*syujet bilan aloqadorlik, dekoratsiya va kiyim-kechaklardan imkon qadar kamroq foydalanish, asar asosiy g'oyasini ifodalovchi musiqiy parchalar kiritish, realizm va naturalizmning sintetik birlashuvi va b.*) mantiqan shu munosabatdan kelib chiqadi.

Kiristofer Martalerning¹⁸³ zohiran oddiy, botinan teran ramziy mazmun tashuvchi "raqs teatri"da esa opera, kino va drama unsurlari faol qo'llanildi. Olamning plastik obrazi yaratilib, ishoraviylik kuchaytirildi.

Italyan dramaturglari Luidji Pirandello¹⁸⁴ va Ettore Petrolini¹⁸⁵ avangard intellektual teatrga e'tibor qaratishdi. Ispaniya teatrida mif va metaforizm, AQSH teatrlarida esa, ekspressionizm va realizmning murakkab uyg'unlashuvi kuzatildi. Yudjin Gladson O'Nil,¹⁸⁶ Artur Miller¹⁸⁷ asarlarida alohida odamning ruhiy dunyosini ko'rsatishga e'tibor ortdi. Tenness Uilyamsning¹⁸⁸ "plastik teatr" kontseptsiyasi yuzaga kelgach, ijtimoiy-psixologik dramalarda mumtoz an'analar rad etildi. Inson fojiasi ijtimoiy mohiyatini izlash, ironik kolliziyalarni kuchaytirishga e'tibor ortdi.

Demak, XX-XXI asrlar Sharqiy Yevropa dramaturgiyasi va sahnasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mavjud adabiy-madaniy an'analar o'z o'rnini syurrealistik, muammoli talqinlar, intellektuallik kabi ilg'or yo'nalishlarga bo'shatib bera boshladi. Hajviy pafos va falsafiy mazmun chuqurlashdi. Muammoli va pritcha (*1. masal, hikoyat, ramzli hikoya; qiyin (anglab bo'lmaydigan) narsa; muammo*)¹⁸⁹ga asoslangan pьesalar yuzaga keldi. "Total teatr", "epik teatr", "plastik teatr", "raqs teatri" tushunchalari paydo bo'ldi. Adabiy sintez hodisasiga e'tibor ortib, ishoraviylik, ironiya, mifologik talqinlar va metaforizm kuchaydi.

Afsuski, mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasi va teatri bunday keng ko'lamli o'zgarishlarni yetarlicha ijodiy o'zlashtira olmadi.

Albatta, o'zbek dramaturgiyasi istiqlolgacha bo'lgan davrda shakllanish bosqichini o'tagan, tarixiy-adabiy an'analar va jahon tajribalaridan oziqlanib, sezilarli yutuqlarni ham qo'lga kiritgan edi. Ammo, istiqlol davri adabiyotimizda milliy dramaturgiyaga qo'l urgan shoir, nosir, publitsist, aktyor, rejissyor, madaniyat xodimi singari turli soha vakillari bu turning mavzu-mundarijasini yangilashgani holda, yuksak saviyali asarlar yaratishga hamisha ham muvaffaq bo'lavermadilar. Demak, milliy istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasi ilk bosqichidagi

¹⁸³ **Kristof Martaler** –shveytsariyalik rejissyor va bastakor. Avangard (ekspressionistik) teatr (sahna asarlari) ga absurdga xos unsurlarni kiritgan.

¹⁸⁴ **Luidji Pirandello** – italyan adibi va dramaturgi 1934- yilning Adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori

¹⁸⁵ **Ettore Petrolini** – italyan adibi, dramaturgi, teatr va kino aktyori.

¹⁸⁶ **Yudjin Gladston O'Nil** – amerikalik dramaturg 1936- yilning Adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori

¹⁸⁷ **Artur Asher Miller** – amerikalik yozuvchi va dramaturg.

¹⁸⁸ **Tomas Lanir Uilyams III** (taxallusi **Tenness Uilyams**) – taniqli amerikalik dramaturg.

¹⁸⁹ Русча-ўзбекча лугат. II жилд. – Т: ЎМЭ нашриёти, 2013. – 248 б.



muvaqqiyatsizlik – ob’ektni chuqurroq bilish uchun bilim va tajribaning yetishmasligi, ya’ni sub’ektiv omil bilan bog’liq tarzda namoyon bo’ldi.

Shunga qaramasdan, imkoniyat cheklangani bilan o’sha paytdayoq bilish va o’rganishga bo’lgan kuchli xohish-istak hamda ishtiyoq mavjud edi. Zotan, kurtak holidagi bo’lsa-da, mavzuning yangicha talqinlari ko’zga tashlana boshlagan edi. Bu hol xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma’no-mazmuni, aniqroq aytganda, O’zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo’lidagi bosh g’oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot bunyod etish bilan chambarchas bog’liq tarzda namoyon bo’ldi.

Istiqlol davri o’zbek dramaturgiyasi ilk qadamlaridanoq ulkan ijtimoiy-siyosiy, g’oyaviy-mafkuraviy va ma’rifiy-axloqiy pozitsiyasini aniq belgilab olish, global muammolarni ifodalashda hozirjavob bo’lish – ijtimoiy voqelikni in’ikos qildirishga safarbar etildi. Jumladan:

- O’zbekiston – yagona Vatan degan yuksak tuyg’uni singdirish orqali jamiyat a’zolarini milliy istiqlol g’oyalari atrofida birlashtirish;
- buyuk allomalar, ulug’ saltanat bunyodkorlari, mashhur sarkardalar, qatag’on qurboni bo’lgan ziyolilar obrazlarini yaratish orqali olis-yaqin o’tmishdan to’g’ri saboq chiqarishga o’rgatish;
- kitobxon (tomoshabin) qalbi hamda shuuriga kuchli ta’sir etish;
- tarixiy xotirani tiklash va o’zlikni anglatish;
- diniy bag’rikenglik, ishonch va e’tiqodni mustahkamlash;
- giyohvandlik, vatanfurushlik, qo’poruvchilik kabi vayronkor g’oyalarga qarshi kurash va bunyodkor g’oyalarni targ’ib qilish;
- mamlakatimiz hududiy yaxlitligi va uning sarhadlari daxlsizligini ta’minlayotgan, qurilishlarda alohida jonbozlik ko’rsatayotgan zamondoshlar obrazlarini yaratish;
- bozor iqtisodiyotiga o’tish davrining murakkabliklari iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohotlar tadrijiyligini ko’rsatish va b.

Binobarin, o’zbek dramaturgiyasi va teatr san’ati adabiy-tarixiy meros hamda azaliy qadriyatlar negizida nainki alohida kitobxon va tomoshabin qalbi hamda shuuriga estetik ta’sir etish, balki ijtimoiy tafakkurning yangilanishi, ma’naviyatning yuksalishi, demakki madaniyat, fan, san’at, ta’lim-tarbiya sohalari rivojiga muayyan ulush qo’shishga intildi.

Xulosa. Demak, so’nggi o’n yillikda yozilgan dramatik asarlar orasida g’oyaviy-badiiy jihatdan muayyan yutuqlarga ega namunalar ham bor. Albatta, bu pyesalar tarix va zamondoshlarimiz hayotini haqqoniy yoritgani, kitobxon (tomoshabin) qalbi, dunyoqarashiga ta’sir etib, qaysidir ma’noda, ma’naviy ehtiyojlarini qondira olgani bilan qimmatlidir.

O’zbekistonning milliy istiqlolga erishuvi mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy hayotida tub islohatlar amalga oshirilishiga keng yo’l ochibgina qolmay, xalqning moddiy-ma’naviy turmushini, azaliy qadriyatlarni qayta o’zlashtirishga bo’lgan ilmiy-ma’rifiy munosabatini ham tubdan yangiladi. Insonga e’tibor, ma’naviy meroslarga ehtiromli munosabat va ularni ijodiy o’zlashtirish, milliy o’zlikni anglashning eng muhim omili ekanligi teran anglab yetildi¹⁹⁰. Yaratilgan tarixiy-huquqiy asoslar istiqlol davri o’zbek milliy dramaturgiyasida a) tarixiy qahramonlik; b) tarixiy-falsafiy; v) ma’rifiy-tarixiy yo’nalishda hamda g) zamonaviy mavzularda ko’plab milliy asarlar paydo bo’lishiga imkon yaratdi. Xalqimiz o’tmishining eng nurli

¹⁹⁰ “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” // 2017 йил, 17 февраль.



sahifalarini belgilagan ulug' alloma va mutafakkirlar, adibu shoir, sarkarda va davlat arboblari haqida o'nlab tarixiy pyesalar yozildi.

Nima uchun mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida tarixiy mavzudagi asarlar nisbatan ko'proq yaratildi?- degan haqli savol tug'iladi. Bizningcha, bu hol quyidagi muhim omillar bilan izohlanadi:

Millat tafakkurining uyg'onishi, tarixni badiiy tadqiq etish tamoyili XX asrning 80-yillari o'rtalarida yuzaga keldi va quyidagi o'ziga xos tadrijiy yo'lni bosib o'tdi:

a) jo'shqin pafosga yo 'g'rilgan publitsistik maqolalar totalitar tuzum xalqdan pinhon tutgan, soxtalashtirib ko'rsatgan tarixiy haqiqatlarni aniqlash tamoyili sifatida bo'y ko'rsatdi;

b) madaniy merosni to'plash, nashr qilish, sharhlash jarayonlari jonlandi;

v) fikrlar tinib, tuyg'ular sokinlashgach, badiiy adabiyotning turfa janrlari, xususan dramaturgiya va kinodramaturgiya bu masalalarga e'tibor qaratdi;

g) olis va yaqin o'tmishni tarixiy-falsafiy negizda poetik idrok etish, davrimizning ilg'or intilishlari, adabiy-estetik qarashlariga mushtarak tarzda badiiy ifodaga ko'chirish harakatlari yuzaga keldi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy o'tmishni anglash, uni xolis o'rganish ehtiyojining paydo bo'lishi va tadrijiy yuksalish jarayonlari ulug' saltanatlar bunyod etgan, dunyo tamadduniga munosib hissa qo'shgan, bebaho madaniy meros qoldirgan, nohaq qatag'on qilingan otabobolarimizni tanish - o'zlikni anglash sari qo'yilgan dadil qadam bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиёт назарияси. Икки томлик. Биринчи том. – Тошкент, Фан, 1978. – Б. 13-22.
2. Аҳмедова В.А. Мустақиллик даври ўзбек драматургиясида жанрлараро диффузияланиш // НамДУ илмий ахборотномаси. – Наманган, 2020. 9-сон.
3. Ahmedova V.A. Qahramonlik modusining e'tiqodiy tayanchi// Journal of Universal Science Research, 1(9), Sentabr, 2023
4. Аҳмедова В.А. Мустақиллик даври ўзбек драматургиясида янгича талқинлар (монография). Т.; - Bookmany print нашриёти, 2024. – 140
5. Ahmedova V.A. The phenomenon of inter genres diffusion in the uzbek drama of independence period // Academia An International Multidisciplinary Research Journal. India. 2020. № 5. - P. 384-391
6. Гоян Георг. Театр древней Армении Т.І, ІІ, – М., 1952;
7. Джаниладзе Д. Грузинский театр с древнейших времен до ІІ половины ХІХ века. – Тбилиси, 1959;
8. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 17-28
9. Имомов Б., Жўраев Қ., Ҳақимова Ҳ. Ўзбек драматургияси тарихи. – Т.: 1995.
10. Ислотов Т. Тарих ва сахна. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.
11. Лебедев О.Б. Картина мира, концепция личности, типология конфликта в литературе классицизма// <https://lit.wikireading.ru/45726>
12. Литературный энциклопедический словарь. Советская энциклопедия. – Москва.: 1987. – С.152;
13. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи (XVIII асрдан XX аср аввалигача), – Т.: 1968;



14. Раҳмонов М. Ўзбек театри. (Қадимий замонлардан XVIII асрга қадар). Фан, – Т.: 1975;
15. Ризаев Ш. Мустақиллик даври драматургияси. / Сарчашма мавжлари. – Т.: “Mashhurpress”, 2016. – Б. 263-288;
16. Русча-ўзбекча лугат. II жилд. – Т: ЎМЭ нашриёти, 2013. – 248 б.
17. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, O'qituvchi, 2005. – B. 190
18. Турсунов Т. Саҳна ва замон. Янги аср авлоди, –Т.: 2007;
19. Фозилова М. Усмон Азимнинг драматургик маҳорати. –Т.: “Тафаккур қаноти”, 2016. – Б.6.
20. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. –Т.: Академнашр, 2010 – Б.130-131.

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FIZIKANING “ELEMENTAR ZARRALAR FIZIKASI” BO'LIMINI O'ZLASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING ROLI

Nasriddinov Komiljon Raxmatovich. f.-m.f.d., Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori.

Madaliyev Akmaljon Maxammadjonovich. (PhD), Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi.

akmalmadaliyev86@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarining Fizika va astronomiya mitaxasislik yo'nalishida Umumiy fizikaning “Elementar zarralar fizikasi” bo'limidan mustaqil ta'limni tashkil etish va o'zlashtirish samaradorligini oshirishdagi roli haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, o'qitish, samaradorlik, ijodkorlik, fikrlash, dunyoqarash, rivojlanish, kreativlik, produktiv, reproduktiv, amaliy mashg'ulot, test, zarra, fizika, talaba.

РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОСВОЕНИЯ РАЗДЕЛА ФИЗИКИ «ФИЗИКА ЭЛЕМЕНТАРНЫХ ЧАСТИЦ» В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Насриддинов Комилжон Рахматович. д.ф.-м.н., профессор Чирчикского государственного педагогического университета,

Мадалиев Акмалжон Махаммаджонович. (PhD), Старший преподаватель Коканского государственного педагогического института.

THE ROLE OF INDEPENDENT LEARNING IN INCREASING THE EFFICIENCY OF MASTERING THE SECTION OF PHYSICS “PHYSICS OF ELEMENTARY PARTICLES” IN PEDAGOGICAL UNIVERSITIES

Nasriddinov Komiljon Rakhmatovich. Professor of Chirchik State Pedagogical University, Doctor of Physics and Mathematics.

Madaliyev Akmaljon Makhammadjonovich. (PhD), Senior teacher of Kokan State Pedagogical Institute.